

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASIDA ”HUQUQIY DAVLAT” PRINSIPINING MUSTAHKAMLANISHI VA UNING AHAMIYATI

Ashuroxunova Iroda Tohir qizi

Guliston davlat universiteti

ashuroxunovairoda@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, xususan, huquqiy davlat prinsipi, mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishdan maqsad, huquqiy davlat kategoriyasining nazariy va huquqiy tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, hokimiyatning bo‘linish prinsipi, huquq, erkinlik

Konstitutsiya mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanishi bilan bir qatorda har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat hamdir. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari Asosiy qonun – Konstitutsiyada to‘liq ifoda etiladi.

O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot bosqichini hisobga olgan holda millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirilishi tabiiy ehtiyoj edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan normalar mazmunidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy negizi bo‘lmish insonning sha’ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishi qat’iy qoidaga aylantirildi. Bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” g‘oyasi hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuv yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmun-mohiyatiga chuqur singdirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, mazkur Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan, ya’ni, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendum natijalari asosida qabul qilinib, tariximizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga kiritilgan birinchi hujjat, shuningdek, xalq konstitutsiyasi maqomini oldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning eng ahamiyatli tomonlaridan yana biri sifatida Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya konstitutsiyalarida o‘z ifodasini topgan ”huquqiy davlat” prinsipining mustahkamlanganligi hamda ushbu prinsipni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilanganligini qayd

etishimiz lozim. Quyida "huquqiy davlat" tushunchasini nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilib o'tamiz.

"Huquqiy davlat" tushunchasi. Nazariy va huquqiy tahlil

Bugun Yangi O'zbekiston insonparvar va xalqchil bo'lgan huquqiy davlat qurish yo'lidan odimlamoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo'lgan uchrashuvda "Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to'liq ta'minlash tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin" – deb ta'kidlagan edilar. Shu ma'noda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida "O'zbekiston – huquqiy davlat" ekanligi to'g'risidagi prinsip mustahkamlandi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: "Huquqiy davlat" deganda qanday shakldagi davlat ko'z o'ngimizga kelishi kerak? "Huquqiy davlat"ning asosiy belgilari va tamoyillari nimlaardan iborat?

Davlatni o'z faoliyatini qonun asosida amalga oshiradigan tashkilot sifatida tushunish bilan bog'liq g'oyalar insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq shakllana boshlagan.

Bunda hokimiyat faoliyatining adolat talablariga mos bolishi zarurligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Xususan, antik davr mutafakkirlaridan biri Aflotun (miloddan avvalgi 427-347-yillar) bu borada shunday deb yozgandi: «Qonun kuchga ega bo'lmagan va kimningdir hukmi ostida bo'lgan davlatning tez halokatga uchrashini ko'raman». Yana bir yunon mutafakkiri Arastu (miloddan avvalgi 384-322-yillar) ham tabiiy huquq nuqtai nazaridan oqilona qonunlar boshqaruvi konsepsiyasini asoslab bergan. «Shunday qilib, - deb yozgandi u, - kimki qonun hukmronlik qilishini talab etsa, u ilohiyot va aql hukmronligini talab qilganday bo'ladi, kimki odam hukmronlik qilishini talab etsa, bunga o'z talabini, hirsini kiritadi, zero, bunday tuyg'u insonga xos emas, hukmdorlar garchi eng yaxshi odamlar bo'lsada, g'azab ham ularni chin yo'ldan ozdiradi, bunga qarama-qarshi o'laroq, qonun bu bosiq, vazmin aqlidir»¹.

Huquqiy davlat haqidagi g'oyalar Yevropada o'rta asr va yangi davr mutafakkirlari ijodida yanada rivojlantirildi. Huquqiy davlatchilik konsepsiyasining ishlab chiqilishiga yevropalik mutafakkirlardan G. Grotsiy, B. Spinoza, T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteske, D. Didro, P. Golbax, T. Jefferson kabilar ham salmoqli hissa qo'shgan.

Huquqshunos olim Sh.Saydullayev huquqiy davlatni huquqiy asosda tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorlik qiladigan davlat sifatida tilga olib, ayni paytda huquq ustunligi ta'minlangan, hokimiyatni

¹ Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish". 2022.

taqsimlash prinsipi izchil amalga oshirilgan, shuningdek inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari tan olingan hamda kafolatlangan demokratik davlat ekanligini ham e'tirof etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz misolida tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, huquqiy davlatning asoslaridan biri, ya'ni, hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipi O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 11-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi"² shaklida mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu moddaning uzviy davomi mazkur Konstitutsiyaning 91, 114 hamda 130-moddalarda ifodalangan bo'lib, ularda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining vakolatlari, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashdagi o'рни belgilab berilgan.

Inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari tan olinganlik hamda kafolatlanganlik sharti ham huquqiy davlat asoslaridan ekanligi doirasida fikr yuritsak, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi aynan shu masalaga bag'ishlanganligi, mazkur bo'lim tarkibidan joy olgan X-bobda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari munosib tarzda kafolatlanganligi, jumladan, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi bo'lib, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalari qatorida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim ahamiyati hamda ularning faoliyatini tashkil etish uchun bevosita davlatning o'zi mas'ul ekanligi haqidagi normalarning o'zi ham Konstitutsiyaning 1-moddasida belgilangan "huquqiy davlat" prinsipining amalda qo'llanilish mexanizmlari qay darajada mustahkam ekanligining kafolatidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning boshqa normalarida ham huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan mexanizmlar va kafolatlar mustahkamlangan.

Masalan, Konstitutsiyaning 15-moddasida davlat faoliyati qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha Konstitutsiyaning oily yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan - to'g'ri amal qilishi belgilangan

² O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-y.

bo‘lib, buning natijada davlat organlari, shu jumladan, sudlar o‘z faoliyatida Konstitutsiyaga to‘g‘ridan - to‘g‘ri murojaat qilgan holda qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida mustahkamlangan normaning mazmuniga ko‘ra, inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanadi, ular qonunchilik va davlat organlari faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, insonga nisbatan davlatning huquqiy ta‘sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi shartligi va inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlandi. Ilmiy-nazariyalarga tayangan holda aytish mumkinki, bularning barchasi ”huquqiy davlat” prinsipining mazmun-mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan huquq normalari sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Huquqshunos olimlardan yana biri **Z. Islamovning** ta’kidlashicha, huquqiy davlat siyosiy hokimiyatni tashkil etishning alohida shakli bo‘lib, u qonunning ustunligi va hokimiyatning legitimligi, huquqning baland nufuzi va samaraliligi bilan tavsiflanadi, shaxsning huquqiy himoyalanganlik holatini va u demokratik huquq va erkinliklardan o‘z qonuniy manfaatlari yo‘lfda moneliksiz foydalanishini kafolatlaydigan davlat demakdir³.

Huquqshunos olim **X.T.Odilqoriyevning** fikricha, huquqiy davlat – fuqarolik jamiyatining siyosiy shakli bo‘lib, u jamiyat hayotida demokratik institutlarning rivoj topishi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi mavjudligi bilan tavsiflanadigan, inson huquq va manfaatlarini ustuvor ta‘minlaydigan, qonunning ustunligi, qonun va sud oldida barcha teng bo‘ladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati vakolatlari demokratik taqsimlash asosida tashkil etiladigan adolatli davlatdir⁴.

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, huquqiy davlat, eng avvalo, jamiyat va davlat ishlarida huquqning ustuvor bo‘lishi, huquq ustuvorligini ta‘minlashda davlatning mas’ulligi yuqori darajada bo‘lib, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlari munosib darajada ta‘minlanishi shart bo‘lgan davlat bo‘lib, o‘z o‘rnida mazkur davlat fuqarolik jamiyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini, Sh,Saydullayev ta’biri bilan aytganda, huquqiy davlatning mavjudligi fuqarolik jamiyatining mavjudlik shartlaridan biridir.

Insoniyat tarixida “huquqiy davlat” g‘oyasi vujudga kjelgan ilk davrlardan boshlab, asrlar davomida yig‘ilgan tajriba, milliy va xalqaro huquqshunos olimlarning

³ Исламов З., Аббосхужаев С. Конституция - хуқуқ устунлиги асоси. - Т.: Ўзбекистон, 2012.

⁴ X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. "Adolat". 2018.

ilmiy-nazariy qarashlaridan kelib chiqqan holda Sh.Saydullayev “huquqiy davlat”ning beshta belgisi mavjudligini ta’kidlaydi. Bular:

- davlat va davlat organlarining huquq bilan aloqadorligi;
- demokratik huquq va erkinliklar bilan bog‘liq barcha institutlarning mavjudligi;
- inson (fuqarolar) huquq va erkinliklarining davlat tomonidan e’lon qilinganligi, himoya qilinishi va kafolatlanishi;
- rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
- davlat va shaxsning o‘zaro mas’ulligi va boshqalar⁵.

Huquqshunos olim **X.T.Odilqoriyev** esa ”huquqiy davlat” belgilari sifatida quyidagilarni e’tirof etadi:

- 1) jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunning ustunligi;
- 2) huquqiy davlat organlarining faoliyati hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi;
- 3) shaxs va davlatning o‘zaro mas’ulligi;
- 4) fuqarolarning huquq va erkinliklari amalda ta’minlanishi, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyalanganligi;
- 5) konstitutsiya doirasida ish olib boruvchi turli partiyalar, tashkilotlar va birlashmalarning erkin faoliyati, turli mafkuraviy qarashlarning mavjudligiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy plyuralizmning qaror topganligi;
- 6) jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotning barqarorligi⁶.

Xulosa.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkin. Huquqiy davlat – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g‘oyasi bo‘lib, Konstitutsiya va qonun ustuvor bo‘lgan, inson huquq va erkinliklari himoya qilingan va amalda ta’minlangan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun bo‘lmaydigan davlatdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini alohida belgilanganligi – davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishni ta’minlab, pirovardida davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlari uchun ishlashiga, ularga xizmat qilishiga olib keladi. Shuningdek, O‘zbekistonning “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi” kabi xalqaro nufuzli reytinglarda o‘rni yaxshilanishiga imkon beradi.

⁵ Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. ”Yuridik adabiyotlar publish”. 2022.

⁶ X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. ”Adolat”. 2018.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-y.
2. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. ”Adolat”. 2018.
3. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. ”Yuridik adabiyotlar publish”. 2022.
4. Исламов З., Аббосхужаев С. Конституция - х.укуқ устунлиги асоси. - Т.: Ўзбекистон, 2012.

